

**“BERDAQNING SHE’RIYATI: HAQIQAT VA XALQ
DARDINING AKS – SADOSI”.**

*Toshkent Pediatriya Tibbiyot instituti
2 – pediatriya va Fundamental Tibbiyot
Fakulteti 104 – guruh talabasi*

Sobirova Nasibaxon Jamoliddin qizi.

Email: jamoliddinovnanasibaxon7@gmail.com

Tel: +998 93) 280 – 67 – 05

Annotatsiya: Maqola qoraqalpoq adabiyotining yorqin namoyondalaridan biri bo’lgan Berdaqning she’riy merosini chuqur tahlil qiladi. Muallif, Berdaq she’riyatining asosiy temalarini, uning xalq hayoti va dardini tasvirlashdagi o’ziga xos uslubini, shuningdek, ijodining tarixiy va ijtimoiy kontekstini o’rganadi. Berdaqning she’rlarida xalqning kundalik hayoti, muammolari va azob – uqubatlari tasvirlangan bo’lib, bu she’rlar nafaqat adabiy, balki psixologik va falsafiy ma’noga ega. Maqolada Berdaqning asarlarini xalqning ruhiy holatini aks ettiruvchi, uning maqsadi va istaklarini ifodalovchi san’atkor sifatida ko’rib chiqishadi. Muallif, shuningdek, Berdaqning she’riyati orqali haqiqatni anglash va xalqning og’ir holatini ifodalashdagi mahoratini ta’kidlaydi. Maqola Berdaqning zamonaviy adabiyotdagi o’rni, uning she’rlarining yuksak san’at va zamonaviy ijtimoiy muammolarni yoritishdagi ahamiyatini ko’rsatishga intiladi.

Kalit so’zlar: Kontekst, motiv, iqtisodiy inqiroz, lirik va epik asarlar, ijtimoiy tengsizlik, nodavlat tashkilotlar.

Berdaq 1827 – yilda Orol dengizining janubiy sohilida “Oq qal’a (hozirgi Qoraqalpog’iston Respublikasining Mo’ynoq tumaniga to’g’ri keladi) degan joyida dunyoga keladi. Uning asl ismi Berdimurod Qarg’aboy o’g’li bo’lib baliqchi kambag’al oilada tug’iladi. Berdaq Qoraqalpog’istonning taniqli shoirlaridan biri bo’lib, uning ijodi qoraqalpoq adabiyotida muhim

o'rin egallaydi. U she'riyatida xalq dardi, ijtimoiy muammolar va milliy ong mavzulari markaziy o'rinni egallaydi. Berdaq qoraqalpoq xalqining real hayotini aks ettiruvchi lirik va epik asarlar yaratgan. Uning asarlarida xalq og'ir turmush sharoitlari, adolatsizlik, jinoyatchilik va ijtimoiy tengsizlik masalalari yoritilgan.

Berdaq obrazi ko'pincha qoraqalpoq xalqining og'ir sharoitidagi va milliy o'zlikni anglash yo'lidagi kurashni aks ettiradi. Uning ko'plab asarlarida xalqning qiyinchiliklari va ularning o'g'ir turmush sharoitlari tasvirlanadi. Bu holatlarda ko'pincha Berdaq she'rlari xalqning ovozi, xalqqa yolg'iz emasligini eslatib turuvchi omil sifatida namoyon bo'ladi. Berdaq xalq dardi, odamlarga adolat va mehr – muhabbat tuyg'ularini olib chiqishga harakat qilgan. She'rlarida Berdaq, shuningdek, zamon va makon tushunchalari orqali xalq dardini va qayg'ularni ochib beradi. Bu asarlarida u ijtimoiy adolatsizlik, zulm va qashshoqlikni o'z kasriga olgan davr va jamiyat bilan yashirin dardlar borligi seziladi. Berdaq o'z xalqining baxtiga erishish yo'lida ijodining kuchini, iste'dodini asrab, ularni she'riy qolipda mujassam eta bildi.

Berdaqning she'riy merosi, 400 dan ortiq she'rdan tashkil topgan bo'lib, ular xalq orasida keng tarqalgan va xalqning turmush tarsi, orzu – umidlari va chuqur axloqiy qadriyatlari yoritib bergan. U ko'pincha xalq og'zaki ijodi an'alarini boyitgan holda zamonaviy she'riyati uchun yangi yo'nalishlar ochib bergan. Uning ayrim mashhur asarlari, masalan, “Xalq uchun” nomli dostonida qoraqalpoq xalqining dard – u tashvishlari, ularning o'z dardini qanday ifoda qilishlari va qanday yo'llar bilan ulardan qutulishga intilishlari tasvirlangan. Bu asar xalqning ijtimoiy faolligini, uning erkinlikka bo'lgan intilishini anglashda muhim ro'l o'ynaydi. Buning isbotini quyidagi satrlar orqali bilib olishimiz mumkin.

Quvvat bergay Olloh nozik bellarga,
 Madad bergay yosh ochilgan gullarga.
 Baxt hech kularmikan bizning ellarga,

O'lguncha aytarman so'zni xalq uchun.

Bu azobni boshqalarga bermasin,
Hech bir kishi g'arib bo'lib yurmasin.
Bu zulmatni ko'zim endi ko'rmasin,
Ko'rsa ko'zdan yoshim oqar xalq uchun.

Yigitlar, aytayin arz – u holimni,
Yig'lab o'tkazdim men oy – u yilimni.
Azob bilan olmasinda jonimni,
Sho'rlik Berdimurod yozar xalq uchun.

Berdaq shuningdek, qoraqalpoq xalqining milliy o'zligini va o'z xalqiga bo'lgan chuqur hurmat va ehtiromini ifodalovchi she'rlar yaratgan. Uning asarlari qoraqalpoq xalqining tarixiy va ma'daniy merosini saqlash va rivojlantirishga xizmat qilgan.

Berdaq asarlari orqali qoraqalpoq xalqining adabiy merosi boyishiga hamda qoraqalpoq tili va adabiyotining rivojlanishiga katta hissa qo'shgan. Uning ijodi nafaqat Qoraqalpog'iston xalqining, balki, umumiy turkiy xalqlar adabiyoti rivojida muhim o'rin tutgan. Bu jihatidan, Berdaq she'riy merosini o'rganish, uni keng ommaga yetkazish va unga bo'lgan qiziqishni o'stirish bugungi kunda ham dolzarbdir. Uning she'riyati va xalq dardi mavzusida ko'rib chiqilsa, shoirning xalq og'ushidagi roli, uning adabiy faoliyati hamda asarlarining mazmun – mohiyati qoraqalpoq adabiyotida va xalq orasida qadrlanganligini anglash lozim. Berdaq she'rlari orqali milliy dard va xalqning umumiy azoblariga ta'sirli tilda ifoda bera olgani uchun ham zamondoshlari va kelajak avlodlari orasida u o'z ishiga sodiq shoir sifatida tan olingan.

Uning asarlarida ijtimoiy adolat muhim mavzulardan biri sifatida ko'rinish topgan. Berdaq ijodi Qoraqalpog'iston va O'zbekiston adabiyotida

alohida o'rin egallagan va asarlarida ijtimoiy adolatni ulug'lash hamda jamiyatdagi adolatsizliklarni fosh etish ko'p uchraydi. Uning ijodi xalq hayoti, ularning dardlari va muammolarini yoritishga alohida e'tibor qaratadi. Berdaq asarlarida ijtimoiy adolat motivlariga oid bir qator asosiy nuqtalar mavjud.

Birinchidan, Berdaqning asarlarida ko'pincha xalqning qashshoqligi va zo'ravonlikka uchraganligi tasvirlanadi. Shoir inson o'rtasidagi tengsizlik va zulmni fosh etib, aholining adolatli turmush kechirishi uchun kurashadi. U ijtimoiy adolatni aholining turmush darajasini ko'tarishda, ularning haq – huquqlarini himoya qilishda ko'radi.

Ikkinchidan, Berdaqning asarlarida hukumat va jamiyatning zaif tomonlari haqidagi tanqidiy fikrlar ham mavjud. Shoir rasmiylarning adolatsizligi va nohaqliklarni fosh etib, insonlarning huquqlarini toptamaslik uchun kurashni tavsiya etadi. U, shuningdek, rahbarlarning vazifalari va xalq oldidagi ma'sulyatlari haqida ham so'z yuritadi.

Uchinchidan, shoirimiz ijodida ijtimoiy mavzulardan biri sifatida o'qitish va ma'rifat darajasini oshirish masalalari ham ko'tarilgan. U shaxs va jamiyatning rivojlanishida bilimning ahamiyatini ta'kidlaydi. U insonga bilimi va tarbiyalanganligi orqali yagona adolatli jamiyatni qurish mumkinligiga ishonadi.

To'rtinchidan, Berdimurod asarlarida nodavlat tashkilotlar va jamoatchilik faoliyati muhim o'rin oladi. Shoir fuqarolik jamiyatini alohida e'tiborli ekanligini ta'kidlab, ular orqali ijtimoiy adolat va inson huquqlarini himoya qilish imkoniyatlarini ko'rdi.

Beshinchidan, Berdaqning ijodida ijtimoiy adolat motivlariga ega bo'lgan qahramonlar ko'pincha xalq orasidan chiqadi. Bu qahramonlar o'z haqlari va erkinliklari uchun kurashadi, zulm va nohaqlikka qarshi turadi.

Umuman olganda, Berdaqning ijtimoiy adolat haqidagi asarlari bugungi kunda ham o'z dolzarbligini yo'qotmagan. Shoir o'z ijodi orqali ijtimoiy adolatning muhimligini, uning shaxs va jamiyat rivojidagi roli keng

ommaga yetkazishga harakat qilgan. Uning asarlari orqali o'quvchilar adolatning ahamiyatini anglashadi va jamiyatdagi mavjud muammolar ustida fikrlashga undaladi. Berdaqning ijodi O'zbekiston va Qoraqalpog'iston adabiyotlarida o'ziga xos tarzda baholanadi va hozirgi kunda ham keng o'rganilib kelinmoqda. U nafaqat qoraqalpoq xalqining, balki barcha o'zbek adabiyotining buyuk shoirlaridan biri hisoblanadi uning ijtimoiy adolatga oid asarlari nafaqat adabiy, balki tarixiy va ijtimoiy jihatdan ham katta ahamiyatga ega. Bu asarlar orqali shoir qay darajada xalqning va jamiyatning dard – u hasratlarini chaqqon kuzatib, ularni ijodiga singdirgani yaqqol seziladi. Berdaq kabi shaxslarning ijodi adolat va haq – huquq uchun kurashda barcha avlodlar uchun ilhom manbai bo'lib xizmat qiladi. Misol tariqasida “Oqibat” she'riga to'xtalib o'tsak.

...Birovlar ochdan qirildi,
 Bukchayib, bo'yni burildi.
 Ozirzamon qurildi,
 Oxiri bo'lgay oqibat.
 O'tdi qancha bizday inson,
 O'z davrida chekib fig'on.
 Bag'rim yonar so'z ochgan on,
 Tuzalgay zamon oqibat.
 Xususan, Xitoy – u Qipchoq¹,
 O'lib yotar quchoq – quchoq.
 Armonda ketdilar qashshoq,
 Oxiri bo'lgay oqibat.

Berdag ijodining muhim tomonlaridan biri - xalq hayoti va uning turmush tarzini aks ettirishdir. Shoir o'z asarlarida qoraqalpoq xalqining kundalik hayoti, ular duch kelayotgan qiyinchiliklar va ularni bartaraf etish

¹ Язид -u maviya sulolasiga mansub arab arab xalifalaridan biri.

usullari tasvirlaydi. Ayniqsa, “Soliq” kabi mashhur asarlarida u jamiyatdagi ijtimoiy adolatsizliklarni keskin tanqid qiladi. Berdaq ijodida qoraqalpoq xalqining azaliy orzu - umidlarini, sog’inchlarini va yutuqlarini aniq ifoda etishga harakat qilingan.

XIX asrning ikkinchi yarmida Qoraqalpog’istonning ahvoli juda murakkab bo’lgan. 1860 - yillarda Turkiston o’lkasining Rossiya imperiyasi tarkibiga qo’shilishi natijasida qoraqalpoq xalqi bosim va zulmga duch kelgan. Axir u davrda iqtisodiy inqiroz va qashshoqlik xalqqa qattiq ta’sir qilgan. Ushbu davrda Berdaq ijodi Orol dengizi bo’ylarida yashayotgan qoraqalpoqlarning og’ir sharoitlarini ko’rsatishga bag’ishlangan. Shuningdek, Berdaq asarlarida yurtparvarlik va vatanparvarlik motivlari hamon dolzarbligini saqlab qolish va rivojlantirishga undagan. Shoir kundalik mehnat ahamiyati, borliqni mushohada qilish va milliy ma’naviyat yuksaklikka olib chiqishga yo’naltirilgan ma’naviy masalalarni ko’tarib chiqadi. Uning asarlari asosan xalqning yuksak orzu - ulashuvlari, mahnat qilgan odamlarning ma’naviy yuksalishi va ma’daniy taraqqiyoti bilan bog’liq. Shoir o’z asarlarida nafaqat qoraqalpoq, balki Turkiston xalqining og’ir turmush sharoitlarini, siyosiy va ijtimoiy hayotidagi muammolarni ham yoritadi. Bu orqali u xalq ma’naviyatini yuksaltirishga, ijtimoiy tenglik va adolat o’rnatishga chaqiradi. Berdaq asarining asosiy qahramonlari oddiy xalq vakillari bo’lib, ularning hayoti va turmush tarzi orqali shoir o’z fikr - mulohazalarini ifoda qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Mirtemir tarjiması “Tanlangan asarlar” Fanlar akademiyasi.T.:1956.
2. Бертельс Е.Э. Суфизм и суфийская литература М.:1965.
3. Karimov I. A. Barkamol avlod orzusi T.:2000y.
4. Falsafa qomusiylug’at, Toshkent, Sharq - 2003.
5. <http://www.geocities.com/bolatkhana/adebiestories.html>.